

VOLEYBOL MUSOBAQASIDA HAKAMLARNING VAZIFALARI.

Xomudjonova Feruza

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrası, Dotsent.*

Ergasheva Zilola

*Shaxrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy
madaniyat sirtqi bo'lim 3 kurs talabasi.*

Kalit so'zlar. Futbol, mashg'ulot, sport, o'yinchilar, maydon, to'p g'alaba, hujum, himoya.

Annotatsiya.

Musobaqa tom ma'noda necha yillik mashg'ulotlar yig'indisi hisoblanadi. Har bir sport turida musobaqalar o'tkazishning o'z qonun - qoidasi mavjud bo'lganidek, voleybol musobaqasi ham ma'lum qoidalarga asoslanadi.

Kirish.

Voleybol - inglizcha so'z bo'lib o'zbekchada - parvoz qiluvchi to'p degan ma'noni anglatadi. 1896 - yilda Springfield shahridagi kollej direktori doktor Alfred Xalsted bu o'yinga voleybol deb nom berdi. Xalqaro federatsiyaga 1947 - yil, Olimpiya o'yinlariga 1964 - yilda kiritilgan. Voleybol ilk bor o'zbekistonga 1920 - yildan boshlab o'ynala boshlandi. 1991 - yil O'zbekiston xalqaro voleybol federatsiyasiga, 1992 - yil Osiyo voleybol konfederatsiyasiga a'zo bo'ldi. Har bir o'yinda 6 kishidan o'yinchi o'ynaydi va ikki jamoadan tashkil topgan. O'yinlar 3 partiya yoki 5 partidada, 15 achkodan 25 achkogacha o'ynaladi.

Asosiy qism.

Barchamizga ma'lumkihar bir sport turining o'ziga yarasha qonun qoidasi mavjud. Mashg'ulot jarayonida olingan bilimlar musobaqa paytida namoyon bo'ladi. Musobaqa mashg'ulotning asosiy negizi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Qayerda qay holatda va kimlar ishtirokida musobaqa bo'lishidan qat'iy nazar doimo musobaalar bir xil tartibda amalga oshiriladi. Musobaqa jarayonini nazorat qilish esa hakamlarning zimmasida hisoblanadi. Har bir musobaqani shu tartibdagi hakamlar olib boradi: birinchi hakam, ikkinchi hakam, kotib, to'rtda (oki ikkita) chiziq hakamlari hisoblanadi. Birinchi hakam vakolati. Birinchi hakam o'yin boshlangandan tugagunga qadar o'yinni boshqarib boradi. Birinchi hakam asosiy hakam hisoblanib, musobaqada qatnashyotgan o'yinchilar hamda qolgan hakamlarni nazorat qilib turadi va uning qarorlari hal qiluvchi asosiy kuchga ega. Biror faoliyatni boshqa hakamlar haq desayu birinchi hakam notug'ri deb topsa, albatta bu faoiylat notug'ri hisoblanadi.

Ikkinchi hakam vakolatlari. Ikkinchi hakam birinchi hakamning ro'parasida voleybol usuni ortida birinchi hakamga qaragan holda tik joylashadi. Ikkinchi hakam, zaxiradagi o'yinchilarni almashtirishga ruxsat beradi va kuzatib turadi, o'yin oldidan va har bir partiya oldida o'yinchilar joylashuvini nazorat qiladi.

Kotib. Kotib mashg'ulot jarayonida faoliyat yuritish uchun birinchi hakam oldida ikkinchi hakam orqasida turadi. Uning vazifalari o'yin bayonnomasiga o'yin va jarimalarni yozadi, yig'ilgan achkolar, tanaffuslar, to'pni o'yinga kirtishlar kabi bir qator vazifalarni yozib boradi.

Chiziq hakamlari. Chiqiz hakamlari 4 ta bo'lganida maydonning har bir burchagiga joylashishadi hamda chiziqlarni nazorat qilib turadi. Agar o'yinda 2 ta hakam ishtirok etsa ular maydon burchaklaridan bir biriga diagonal tarzda joylashishadi. Chiziq hakamlari qo'lidagi bayroqchalarni harakatlantirib, quyidagilarni ifodalaydilar:

- to'p maydonga va chiziq ustiga tushsa;
- to'p maydon tashqarisiga chiqsa;

Voleybol uyinida musobaqalar uquv mashg'ulotlarning asosiy qismi hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida o'rganilgan texnik, taktik usullar yordadimida musobaqa jarayonida oson g'alabaga erishish mumkin. Shu sababdan ham asosiy omil musobaqa hisoblanadi. Musobaqa qilan birgalikda hakamlar ham asosiy tartib, asosiy qism hisoblanadi. Hech bir musobaqani hakamlarsiz tasvvur etib bulmaydi.

Xulosa.

Voleybol o'yinda, yuqorida asosiy qism sifatida ta'rif berilgan hakamlar vazifasi malum tartiblar asosida amalga oshirilgan ekan. Har bir hakamning o'z vazifasi mavjud bo'lib, o'yin vaqtida o'yinchilar bilan doimiy aloqada bo'lib turishadi. Hakamlar bajarayotgan vazifasiga qarab nomlamadi va shu tartibda musobaqa shaffof kechishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1) Nigmanov B. Xo'jayev F. „, Sport o'yinlari "
- 2) Pulatov A. A. „, Yosh voleybolchilarda tezkorlik - kuch sifatlarini shakllantirish uslubi".
- 3) Pulatov A. A. „, Voleybol".